

IJTIMOIIY TARMOQLARDA TIL VA SHAXSIYAT IFODASI

Eshpo'latova Farangiz

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili va adabiyoti 1 - fakulteti

2307 - guruh taabasi

Ilmiy rahbar: **Saloxiddinova Sayyora**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tilning qo'llanilishi va uning shaxsiyat ifodasidagi o'rni tahlil qilinadi. Instagram, Telegram va TikTok platformalarida foydalanuvchilarning nutqiy xususiyatlari hamda leksik va stilistik tanlovi orqali ularning individual jihatlari yoritiladi. Shuningdek, internet tiliga xos slang, qisqartmalar va emojilarning kommunikativ ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiyat, nutqiy xususiyatlar, internet tili, lingvistika, qisqartmalar, kommunikatsiya, slang, emoji, identitet.

Abstract. This article analyzes the use of language in social networks and its role in personality expression. The Instagram, Telegram and TikTok platforms highlight users' speech characteristics as well as their individual aspects through their lexical and stylistic choices. The communicative significance of slang, abbreviations, and emojis specific to internet language is also considered.

Keywords: social media, internet language, personality, speech characteristics, slang, emoji, abbreviations, communication, identity.

Аннотация. В статье анализируется использование языка в социальных сетях и его роль в выражении идентичности. Индивидуальные аспекты пользователей раскрываются через их речевые характеристики, а также лексический и стилистический выбор на платформах Instagram, Telegram и TikTok. Также рассматривается коммуникативная значимость сленга, сокращений и эмодзи, характерных для интернет-языка.

Ключевые слова: социальные сети, интернет-язык, личность, речевые особенности, сленг, эмодзи, сокращения, коммуникация, идентичность.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ular nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsning o'zini namoyon etish platformasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til inson tafakkuri va madaniyatining mahsuli sifatida shaxsiyatni aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniladigan til shakllari an'anaviy nutqdan farqli ravishda soddalashtirilgan, qisqartirilgan va emotsional jihatdan boy bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va u orqali shaxsiyatning ifodalanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniladigan til kommunikativ samaradorlikka yo'naltirilgan bo'lib, unda tezkorlik va qisqalik asosiy o'rin tutadi. Foydalanuvchilar ko'pincha grammatik me'yorlarga to'liq amal qilmaydi, so'zlarni qisqartiradi va fonetik yozuvdan foydalanadi. Masalan, "bo'пти" o'rniga "bp", "rahmat" o'rniga "raxmat" kabi shakllar keng tarqalgan. Shuningdek, ingliz tilidan kirib kelgan "post", "story", "like" "share" "fellow" kabi birliklar ham faol ishlatiladi. Mazkur holat tilning ommalashuv

jarayoniga moslashayotganini hamda ijtimoiy guruhlar, ayniqsa yoshlar nutqida yangi lingvistik tendensiyalar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Til orqali shaxsiyatni ifodalash usullari

Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning nutqi ularning shaxsiy xususiyatlarini aks ettiradi. Har bir inson o'zining kommunikativ uslubini shakllantiradi va bu uslub uning xarakteri, dunyoqarashi hamda ijtimoiy maqomi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, emotsional jihatdan boy nutq va ko'p emoji ishlatish ochiq va hissiyotga moyil shaxslarni ifodalasa, qisqa va aniq yozish uslubi mantiqiy va vazmin shaxsiyatga xosdir. Shuningdek, lug'at boyligi ham muhim ko'rsatkichdir. Kitobiy til elementlaridan foydalanish yuqori madaniy bilmini bildirsam, slang va oddiy iboralar norasmiylik va yoshga xoslikni ifodalaydi. Masalan, *D. Crystal* ta'kidlaganidek, "Internet tili an'anaviy til shakllaridan farq qilib, qisqalik va tezkorlikka asoslanadi". Teacher Azam ijtimoiy tarmoqlarda o'zining pedagogik shaxsiyatini nutq orqali ifodalaydi. U postlarida aniq va motivatsion iboralardan foydalanadi, masalan, "Don't give up" yoki "Practice every day". Shuningdek, u emoji va qisqa iboralar yordamida auditoriyasi bilan yaqinlik o'rnatadi. Shu bilan Teacher Azam misoli ijtimoiy tarmoqlarda til orqali shaxsiyatning qanday ifodalanishini amaliy jihatdan ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida ham til va shaxsiyat masalasi muhim o'rin tutadi. Xususan, Shavkat Safarov pragmalingsvistika doirasida nutqning inson omili bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir nutqiy faoliyat ortida so'zlovchining maqsadi, emotsional holati va ijtimoiy mavqei namoyon bo'ladi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar nutqini tahlil qilish orqali ularning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash mumkinligini ko'rsatadi.

Internetda tilining roli: slang, qisqartmalar va emoji

Internet tili zamonaviy lingvistik hodisa sifatida shakllanib, o'zining alohida xususiyatlariga ega. Uning asosiy elementlari slang, qisqartmalar va emojilardir. Slang muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lib, ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan va nutqqa erkinlik baxsh etadi. Masalan, "zo'r", "gap yo'q", "crush" kabi so'zlar shaxsning zamonaviy muhitga moslashganligini ko'rsatadi. Qisqartmalar kommunikatsiyani tezlashtiradi va yozma nutqni ixchamlashtiradi, ya'ni tez yozish ehtiyojidan kelib chiqadi va ayniqsa yoshlar nutqida faol qo'llaniladi. Emoji esa vizual-kommunikativ vosita sifatida matnga emotsional rang beradi va foydalanuvchining his-tuyg'ularini tez ifodalash imkonini yaratadi. Shu jihatdan emoji zamonaviy tilning muhim pragmatik komponentiga aylangan. Oddiy matnda ifodalash qiyin bo'lgan hissiyotlar aynan emoji orqali oson yetkaziladi. Masalan, kulgu yoki yurak belgisi insonning kayfiyatini va munosabatini aniq ifodalaydi.

Yoshlar nutqi va shaxsiyat

Ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. Ularning nutqi dinamik, kreativ va doimiy o'zgarib boradi. Yoshlar yangi leksik birliklar yaratadi, mavjud so'zlarga yangi ma'no yuklaydi va til rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Bu jarayon ularning shaxsiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, erkin fikrlash va shaxsiyatimizni namoyon etishga xizmat qiladi. Masalan, yoshlar nutqida "crush", "like bosdim", "story tashladim", "trendda" kabi aralash va zamonaviy iboralar keng qo'llaniladi. Shuningdek, "blogger", "rekda", "top", "legend" kabi slang birliklar orqali ular o'z munosabatini qisqa va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Bunday ifodalar yoshlarning zamonaviy madaniyatga yaqinligini va global axborot makoniga moslashganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda til shaxsiyatni ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Foydalanuvchilarning nutqiy xususiyatlari, leksik tanlovlarni va madaniy uslubi ularning individual jihatlarini ochib beradi. Internet tilining rivojlanishi tilshunoslikda yangi yo'nalishlarni yuzaga keltirib, til va shaxsiyat o'rtasidagi munosabatni chuqurroq o'rganishni talab etmoqda. Shuningdek, internet tilining rivojlanishi natijasida yangi kommunikativ shakllar slang, qisqartmalar va emojilar keng qo'llanilib, zamonaviy muloqot jarayonini yanada samarali va ta'sirchan qilmoqda. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning o'zini erkin ifodalashiga imkon yaratadi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda til nafaqat aloqa vositasi, balki shaxsning ichki dunyosi, fikrlash tarzi va ijtimoiy mavqeini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. David Crystal (2006) Language and the Internet. 2nd edition. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Ronald Wardhaugh (2010) An Introduction to Sociolinguistics. 6th edition. Oxford: Blackwell Publishing.
3. George Yule (2014). The Study of Language. 5th edition. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Shavkat Safarov (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Nemat Mahmudov (2013) Til va nutq madaniyati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.